



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

**10.00.02 – O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI IXTISOSLIGI BO‘YICHA
TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI UCHUN
MUTAXASSISLIK FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2026

Annotatsiya:

Dastur 10.00.02 – O‘zbek mumtoz adabiyoti ixtisosligiga kiruvchilar uchun 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishining 2020-yildagi hamda 70230104 – Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti mutaxassisligining 2024-yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

Tuzuvchilar:

Razzoqov A.	–	SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori
Xoliqulova G.	–	SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrası dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Dastur Markaziy Osiyo xalqlari tillari va madaniyati institutining 2026-yil 26-avgustdagi 1-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

KIRISH

“O‘zbek adabiyoti tarixi” fani bo‘yicha:

Adabiyot tarixini o‘rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillari. Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida. Davrlashtirish tushunchasi, istilohlari va tamoyillari. Adabiy-badiiy hodisalar davrlashtirishning bosh tamoyili sifatida. Mumtoz adabiyot tushunchasi va uning xususiyatlari. O‘zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot davrlari. “O‘zbek adabiyoti tarixi” ilmining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari. O‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishning asosiy va qo‘shimcha manbalari. Tarixiylik va adabiy-badiiy o‘zgarishlar davrlashtirishning bosh tamoyillari sifatida. Mazkur masalaga oid fikr va qarashlar xilma-xilligi.

Islomga qadar o‘zbek (turkiy) adabiyoti. Eng qadimgi og‘zaki adabiy yodgorliklar, ularning manbalari. Yunon tarixchilarining asarlarida Markaziy Osiyo mif va afsonalariga oid ma’lumotlar. “Avesto” adabiy manba sifatida. “Avesto”ning o‘rganilishi tarixi. Zardusht shaxsi haqidagi ma’lumotlar. “Avesto” va badiiy adabiyot. Urxun-Enasoy bitiktoshlari adabiy manba sifatida. Urxun-Enasoy yodgorliklarining yaratilishi, o‘rganilishi, janr va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. To‘nyuquq, Bilga xoqon, Kultigin bitiglari. Ularda shaxs va millat erki. Irq bitig-adabiy manba sifatida. Uyg‘ur-turk yozuvidagi yodgorliklar.

Mumtoz poetika masalalari. Ilmi aruz, ilmi bade’, ilmi qofiya haqida ma’lumot. Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va she’r nav’lari.

Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘otit-turk” asaridagi adabiy parchalarning janr va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Asardagi afsona, rivoyat (“sav”), to‘rtlik shaklidagi she’rlar va xalq qo‘shiqlari. Qadimgi turk moniylik adabiyoti. Buddaviylik mazmunidagi turkiy adabiyot. “Oltin yoruq” dostonining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodini o‘rganish manbalari. “Qutadg‘u bilig” dostonining topilishi, o‘rganilishi, qo‘lyozmalari, nashrlari. Asar kompozitsiyasi, timsollarning ramziy mohiyati. Asarda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar, muallifning axloqiy va estetik qarashlari. Dostondagi she’riy shakllar: masnaviy, qasida, to‘rtlik. Asarning bugungi kun uchun ahamiyati. Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodini o‘rganish manbalari. “Hibat ul-haqoyiq” dostonining o‘rganilishi, nashrlari va bu boradagi muammolar. Asardagi muqaddima, asosiy boblar va xotimalarning o‘ziga xos kompozitsiyasi. Asarda ko‘tarilgan axloqiy-falsafiy masalalar va ularga munosabat. Badiiy adabiyot va diniy manbalar (asarda oyat va hadislarning badiiy talqini). Aruz va mutaqorib bahri haqida tushuncha.

Tasavvuf va tasavvuf adabiyoti haqida tushuncha. Ahmad Yassaviy hayoti, “Devoni hikmat” to‘plamining mazmun va g‘oyaviy mundarijasi, janr xususiyatlari, badiiyati. Yassaviya tariqati va o‘zbek adabiyoti.

Mo'g'ullar hukmronligi davri o'zbek adabiyoti (XIII-XIV asrlar). Chingizxon istilosi, uning sabab va oqibatlari. Mo'g'ullar istilosi davrida muhojirlik adabiyoti. Badriddin Chochiy, Muhammad Avfiy Buxoriy va Pahlavon Mahmud ijodi. Nosiriddin Rabg'uziy hayoti va ijodining manbalari. Adib ijodining o'rganilish tarixi. "Qisasi Rabg'uziy" ("Qisas ul-anbiyo") – o'zbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida. Rabg'uziy va turkiy adabiyotda lirik janrlar taraqqiyoti.

Noma janri va uning manbalari. Fors adabiyotidagi noma janrining o'zbek adabiyotiga ta'siri. Shoir Xorazmiy haqidagi ma'lumotlar. "Muhabbatnoma" asarining o'rganilishi, nashrlari, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Noma janrining XV asrdagi taraqqiyoti: Xo'jandiy, Yusuf Amiriy, Said Ahmad ibn Mironshoh va Said Qosimiy nomalari. Hazaj bihri haqida tushuncha. Qit'a, fard, soqiynoma, munojot janrlari haqida tushuncha. Munozara janri va uning o'zbek adabiyotidagi namunalari.

O'zbek mumtoz adabiyotida badiiy tarjimalar. Nizomiy Ganjaviy va Sa'diy Sheroziy asarlarining ijodiy tarjimalari. XIV-XV asrlarda badiiy tarjimalar. Qutbning "Xusrav va Shirin" hamda Sayfi Saroyining "Guliston bit-turkiy" asarlari. Asarlardagi asosiy g'oya, ko'tarilgan masalalar.

XV asrda epik she'riyat va doston janri taraqqiyoti. Durbek haqidagi munozaralar. "Yusuf va Zulayho" dostonining o'rganilishi, syujeti, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Temuriylar davri o'zbek adabiyoti (XV asr). Haydar Xorazmiy hayoti va ijodining manbalari. "Maxzan ul-asror" dostonining kompozitsiyasi. Asarda tarjima va ijodiy o'ziga xoslik. "Gul va Navro'z" dostoni muallifi masalasidagi munozaralar va ularning yechimi. Asar syujeti, obrazlari, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

XV asrda lirik she'riyat taraqqiyoti. Atoyi ijodiy merosining o'rganilish tarixi. Atoyi "Devon"ining o'ziga xos xususiyatlari. G'azal haqida tushuncha, Atoyi g'azallarining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Gadoiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. Gadoiyning ijodiy merosi. Sakkokiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. Adabiy merosi. Qasida haqida tushuncha, Sakkokiy qasidalar. Lutfiy lirikasi manbalari, o'rganilishi. Shoir she'riyatining janr xususiyatlari. Lutfiy g'azal va to'rtliklarining badiiy xususiyatlari. Ruboiy va tuyuq janrlari haqida tushuncha. Sulton Husayn Boyqaro - Husayniy lirikasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro haqida.

XVI asr adabiyoti. Davrning tarixiy sharoiti, madaniy hayoti va adabiy-ilmiy muhiti. Zullisonayn adabiyot. Manbalar va ularni o'rganish tamoyillari. Tasavvuf tariqatlari va adabiy-badiiy jarayon. Tazkiranavislik va uning adabiy tanqid tarixidagi ahamiyati. Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri ahbob" tazkirasining

ilmiy qiymati, Maleho Samarqandiy, Mutribiy, Vozeh tazkiralari. “Tazkirai Qayumiy” zamonaviy tazkira).

Boburiylar davri adabiyoti. Boburshunoslik tarixi. Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va adabiy merosining o‘rganilishi. Xorijda boburshunoslik. Bobur devonlari, qo‘lyozmalari, nashrlari. Bobur she‘riyati janrlari, mavzu ko‘lami. Bobur she‘riyatida hasbi hol. Tuyuq janri va Bobur tuyuqlari. “Mubayyin” va “Volidiya” asarlari. “Boburnoma” – qomusiy, tarixiy esdalik asar. Asarning yaratilish tarixi va o‘rganilishi. “Boburnoma”ning xorijiy tillarga tarjima etilishi, nashrlari. “Boburnoma”da Movarounnahr viloyatlari (Andijon, Marg‘ilon, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va h.) tasviri. “Boburnoma”da tarixiy shaxslar, ijod va ijod ahliga munosabat. “Risolayi aruz” asari va uning o‘rganilishi. “Xatti Boburiy” haqida qisqacha ma’lumot. Hindistonda Bobur an‘analari. Muhammad Bayramxon hayoti va ijodi. Bayramxon “Devon”i, qo‘lyozmalari, nashrlari, o‘rganilishi. Gulbadanbegim va uning “Humoyunnoma” asari. Komron Mirzo “Devon”i, qo‘lyozmalari, nashrlari, o‘rganilishi.

Shayboniylar davri adabiyoti. Muhammad Shayboniy hayoti va ijodi. Ubaydiy adabiy merosi. Muhammad Solih va uning “Shayboniynoma” tarixiy dostoni. “Shayboniynoma” dostoni tuzilishi, vazni, obrazlari. “Shayboniynoma”da temuriylar va shayboniylar tasviri. Majlisiy hayoti va uning “Qissai Sayfulmuluk” asari. “Qissai Sayfulmuluk” dostoni manbalari, syujeti, obrazlari. Xoja va o‘zbek nasriy hikoyachiligi taraqqiyoti. “Miftoh ul-adl” va “Gulzor” asarlarining janriy tarkibi va mazmun-mundariyasi. “Maqsad ul-atvor” dostoni, an‘ana va yangilik.

XVII-XIX asrlarda Buxorodagi adabiy hayot. Turdi Farog‘iy hayot faoliyati, shoir lirikasining janri, mavzu yo‘nalishi. “Subhonqulixon va uning amir-amaldorlari haqida hajviya” muxammasining g‘oyaviy-badiiy yo‘nalishi. Mujrim-Obid she‘riyati, ijtimoiy mavzu yetakchiligi. “Arzi ahvol” masnaviysining shoir tarjimayi holini o‘rganishdagi o‘rni. Muxammas janri va Turdi, Mujrim-Obid muxammaslari. Shavqiy Kattaqo‘rg‘oniy ijodi. Xiromiy dostonlari.

Diniy-didaktik adabiyot va mustaqillikdan keyingi yangicha talqin. So‘fi Olloyor hayoti va ijodi, o‘rganilish tarixi. So‘fi Olloyor she‘riyati, I.Suvonqulov tadqiqotlari. So‘fi Olloyor masnaviylarining janr va uslub xususiyatlari, ta’limiy yo‘nalishi, badiiyati: “Maslakul – mutaqqin”, “Sabot ul ojizin”, “Murod ul – orifin”, “Najot ul – tolibon”. Mashrabshunoslik tarixi, Mashrab hayoti va faoliyati, shoir she‘riyatining janr rang-barangligi va mavzu ko‘lami. Murabba’ – musammatlarning shakliy xillaridan biri. Mashrab merabba’lari. “Mabdai nur”, “Kimyo” asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, Xo‘janazar Huvaydo hayoti va adabiy merosini o‘rganishga doir tadqiqotlar, Huvaydo she‘riyati va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati. “Rohati dil” va “Ibrohim Adham” asarlarining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Qo‘qon adabiy muhiti va unda Umarxon Amiriy tutgan o‘rni. Mohlaroyim Nodira hayoti faoliyati. Nodira devonlarining janr ko‘lami va mavzu rang-barangligi. Maxmur hayoti faoliyati, o‘rganilish manbalari. Shoir hajviyalari va turkumlilik. Muhammadsharif Gulxaniy hayoti va ijodi, o‘rganilish tarixi. Gulxaniy she‘riyati. Masal janri va “Zarbulmasal” asari, uning kompozitsion xususiyatlari. Qo‘qon adabiy muhitida shoirlarning tutgan o‘rni: Nodira, Uvaysiy, Mahzuna, Dilshodi Barno, Anbar Otin. Uvaysiy lirikasining janr va mavzu rang-barangligi, tasavvufiy mayllar. Uvaysiy qissa va dostonlari: “Qissayi shahzoda Hasan”, “Qissayi shahzoda Husayn”, “Voqeoti Muhammad Alixon”. O‘zbek adabiyotida chiston janri taraqqiyoti: Uvaysiy, Ogahiy chistonlari. Muhammad Alixon (Xon) ijodi va unda Navoiy va Fuzuliy an‘analari.

Xiva xonligidagi ijtimoiy, madaniy, adabiy hayot. Tarixnavislik: Abulg‘ozi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Bayoniyning tarixiy asarlari. Lug‘atshunoslik: Muhammadi Xoksorning “Muntaxab ul-lug‘at” asari. Tarjima maktabi: Munis, Ogahiy, Komil Xorazmiy tarjimalari. Mavlono Kiromiy, Mavlono Vafoiy, Pahlavonquli Ravnaq, Roqim hayoti va adabiy merosi. Xalq qissalari va Umar Boqiy ijodi. An‘anaviy dostonnavislik: Nurmuhammad Andalib dostonlari. Muhammadniyoz Nishotiy hayoti va ijodining o‘rganilish tarixi. Nishotiyning xamsanavislikka munosabati. “Husn-u Dil” dostoni va uning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari. Munozara janri va Nishotiy munozaralari, “Qushlar munozarasi” asari. Munisshunoslik tarixi, manbalari. Shermuhammad Munis hayot faoliyati, adabiy merosi. “Munis ul ushshoq” devonining janriy tarkibi, mavzu ko‘lami. “Savodi ta’lim” - ilmiy she‘riyat namunasi. Ogahiyshunoslik tarixi, manbalari. Muhammadrizo Ogahiy hayoti va adabiy merosi. “Taviz ul oshiqin” devonining janr tarkibi, mavzu ko‘lami. Ogahiy – tarjimon, tarixnavis. Munis va Ogahiy ijodida Navoiy an‘analari. Qit‘aning janriy xususiyatlari: Bobur, Huvaydo, Munis, Ogahiy, Avaz O‘tar qit‘alari.

Muqimiy hayoti va adabiy merosi o‘rganilishi tarixi. Muqimiy ijodiy merosi: lirikasi, hajviyoti. Shoir satirasida siyosiy mavzu. Muqimiy “Sayohatnoma”lari. Muqimiy ijodida maktub janri. Zavqiy lirikasi, hajviyoti. Furqatshunoslikning tadrijiy taraqqiyoti. Furqat tarjimai holining murakkab jihatlari. Farg‘ona hamda Toshkent davri faoliyati. Furqat ijodiy merosi: lirikasi, manzumalari va nasriy asarlari. Yangicha ma‘rifatparvarlik faoliyati. Rus mustamlaka siyosatiga munosabati. Furqat va jadidchilik. Furqatning tasavvuf ta’limotiga oid qarashlari. Furqatning chet ellardagi faoliyati.

Muhammad Rahimxon Feruz ijodi. Komil Xorazmiy hayoti va ijodiga oid ilmiy asarlar. Ahmad Tabibiy va Muhammad Yusuf Bayoniy adabiy merosi.

Ishoqxon Ibrat ma‘rifatparvar shoir, publitsist, tarixshunos, tilshunos olim, sayyoh, ilk o‘zbek matbaachilaridan biri sifatidagi faoliyati. Ibrat va “Usuli jadid”

maktablari. “Matbaai Ishoqiya”, “Kutubxonai Ishoqiya”ning vujudga kelishi. Ibratning matbuotda chop etilgan asarlari, ilmiy faoliyati.

Toshkent adabiy muhiti. “Ko‘kaldosh”, “Beklarbegi”, “Baroqxon”, “Xoja Ahror” madrasalari faoliyati. Almaiy, Yusuf Saryomiy, Karimbek Kamiy, Saidrasul Aziziy kabi ijodkorlar adabiy davrasi. Almaiy ijodiy merosi, lirikasi. Almaiy tarjimalari (“Kalila va Dimna”). Karimbek Kamiy ijodiga munosabat masalasi. Tarjimai holi. Kamiy va Toshkent adabiy muhiti. Ma’rifat mavzuidagi she’rlari. Hajviyoti. Tarjimalari. Kamiy dunyoqarashi. Shoir ijodida tasavvufiy unsurlar. Kamiyning jadidcha va qadimcha qarashlari.

XX asr boshlari Turkistonda ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayot. Jadidchilik. Turkistonda jadidchilikning rivojlanish bosqichlari. Davrlashtirish tamoyillari. Ma’rifiy islohotlar davri. Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davri. Madaniy-adabiy hayot. “Usuli jadid” maktablari. Milliy matbuot. Xayriya jamiyatlari va boshqa turli ma’rifiy tashkilotlar. Yangi milliy teatr. Badiiy adabiyot. Adabiy tanqid. Badiiy tarjimachilik. Ijtimoiy tarixiy voqealar. Milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurash g‘oyalari. “Turkiston muxtoriyati”ning faoliyati. O‘zbek romanchilik maktabi. Milliy dramaturgiya. Teatr va adabiy tanqidchilik.

Ismoilbek Gasprinskiy hayoti va faoliyati. Jadid maktablarining ta’sischisi. Gasprinskiy va Turkiston. “Tarjimon” gazetasida Turkiston hayotining yoritilishi. Badiiy asarlarida Turkiston mavzusi. Adabiy-estetik qarashlari. Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va faoliyatining o‘rganilish tarixi. Turkistonda jadid maktablarining tolmas targ‘ibotchisi va tashabbuskorlaridan biri. Behbudiy va Turkiston milliy matbuoti. Ijodiy merosi. “Padarkush” fojeasi. Behbudiy publitsistikasi, adabiy-estetik qarashlari. Avloniyshunoslik tarixi. Avloniy va matbuot. Avloniy va yangi maktablar. Avloniy - aktyor, rejissyor, xormeystr, teatr badiiy rahbari, dramaturg, tarjimon. Avloniyning pedagogik asarlari. Avloniy she’riyati. Avloniyning til, adabiyot, san’at, matbuot, maorif muammolariga oid maqolalari. Abdurauf Fitrat hayoti va ijodining o‘rganilishi tarixi, manbalari. Tarjimai holi. Ijodiy merosi. She’riyati. Nasriy asarlari. Turkiy til bilimdoni va jonkuyari sifatidagi faoliyati. Adabiyot nazariyasiga oid ishlari. Qadimgi turkiy yodgorliklar ustida olib borgan tadqiqotlari. Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari merosiga oid ilmiy ishlari. Tarixiy asarlari. Hamza Hakimzoda Niyoziy ijodining yangicha talqini. Ijodiy merosi. Hamza nasri va jadidchilik. “Yangi saodat” milliy romani. Dramalari. Abdulla Qodiriy hayoti sahifalari. Ijodiy merosi. “Baxtsiz kuyov” pesasi. Jadidchilik va Abdulla Qodiriy hikoyalari. Hajviy asarlari. Birinchi roman - “O‘tkan kunlar”ning yaratilishi. “Mehrobdan chayon” romani. Jadidchilik va Cho‘lpon she’riyati. Shoirning o‘zbek she’r tizimidagi islohotlari. Hikoyalari. Dramalari. “Kecha va kunduz” romani. Romanning o‘zbek realistik nasri shakllanishi va taraqqiyotidagi ahamiyati.

“Navoiyshunoslik” fani bo'yicha:

Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganish manbalari. Navoiy asarlarida “hasbu hol”. XV-XVI asrlar tarixiy va adabiy manbalarida Alisher Navoiy shaxsiyati va adabiy merosi talqinlari. “Navoiyshunoslik: bugun va istiqbol.

Navoiy she'riyati manbalari. Navoiy she'riyati jamlangan dastlabki devonlar (“Ilk devom”, “Oqquyunli muxlislar devoni”). “Badoye' ul-bidoya” mukammal devon namunasi sifatida. “Badoye' ul-bidoya” debochasida adabiy-tanqidiy qarashlar. “Xazoyin ul-ma'oni” kulliyotining o'rganilishi, nashrlari. O'zbek adabiyotshunosligida “Xazoyin ul-ma'oni” asosida bajarilgan yirik tadqiqotlar. Navoiy ijodida g'azal va uning taraqqiyoti. Navoiy g'azallari kompozitsiyasi. Navoiy g'azallarining mavzu rang-barangligi. Navoiy g'azallarida obraz va timsollar rang-barangligi. Alisher Navoiyning hamd g'azallari. Navoiyning na't g'azallari poetikasi. Alisher Navoiy she'riyatida orifona g'azallarning mavqei. Navoiy ijodida musammatlar va kichik lirik janrlar poetikasi.

Xamsanavislik an'anasi tarixi va taraqqiyoti. Alisher Navoiyning xamsanavislik va xamsanavislarga munosabati. Navoiy “Xamsa”sining yaratilish jarayoni. “Hayrat ul-abror” dostonining o'rganilishi, tabdil va sharhlari. “Hayrat ul-abror” dostonida axloqiy qadriyatlar talqinlari. “Hayrat ul-abror” dostonida hikoyatlar. “Hayrat ul-abror” dostonida tasavvufiy mavzular talqinlari. “Farhod va Shirin” dostonida an'ana va o'ziga xoslik. “Layli va Majnun” dostoninig tasavvufiy mohiyati va badiiyati. “Sab'ayi sayyor” dostonidagi hikoyatlar tahlili. “Saddi Iskandariy” dostonlarining tarkibiy tuzilishi va badiiyati. “Lison ut-tayr” dostonining mundarijasi va tasavvufiy talqini. Navoiy poetikasi haqida umumiy ma'lumot. Navoiy aruzi. Badiiy san'atlar va ularning Navoiy she'riyatidagi o'rni. Navoiy “Xamsa”sining vazn xususiyatlari. Navoiy ijodida qofiya tizimi. “Devoni Foni” poetikasi. Nasriy asarlari poetikasi. Alisher Navoiyning ilmiy merosi. Navoiyning ma'rifiy-ta'limiy asarlari.

“Mumtoz tarixiy poetika” va “Adabiyotshunoslik tarixi” fanlari bo'yicha:

“Poetika”, “tarixiy poetika”, “mumtoz poetika” tushunchalarining izohi. Aristotel va uning “Poetika” asari haqida. “Poetika” asarida adabiy tur va janrlar haqida. Aristotel “Poetika”sining sharhlari. Sharq mumtoz poetikasi haqida umumiy tushuncha. “Ilmi segona” va uning asosiy manbalari. Arab filologiyasida poetika masalalari.

Qadimgi Misr adabiyotshunosligining ilk manbalari. Shumer va Bobilda adabiy-nazariy qarashlar. Adabiy ta'lim o'choqlari. Qadimgi Xitoyda “adabiyot” tushunchasining talqini ifoda shakllari (nasr, nazm) haqidagi qarashlarning shakllanishi. Ma'no va shakl munosabati. Badiiy nasr namunalari adabiy-

nazariy fikrlar. Uch sulola davrida estetik qarashlar. Qadimgi Hindistondagi adabiy-estetik qarashlar. Sanskrit poetikasi.

Antik davr yunon adabiyotshunosligi, adabiy-estetik tafakkur taraqqiyoti. Suqrotgacha bo'lgan davrda estetik qarashlar. Homer, Suqrot, Aflotun, Arastu adabiy-nazariy qarashlari. Qadimgi Rimda adabiy-nazariy qarashlar tarixi. Vergiliy, Lusiy Seneka, Psevdo-Longin ta'limoti. Ellinizm davrida adabiy-estetik qarashlar.

Qadimgi Eron va arab madaniyatida adabiy-nazariy qarashlar. "Avesto"da ezgu so'z poetikasi. O'rxun-Enasoy obidalarda nazariy fikrlar. "Devonu lug'atit turk" asardagi adabiy janrlar tasnifi. Islom madaniyati va adabiy-tanqidiy qarashlar taraqqiyoti. Adab ilmlari tasnifi. Aruz ilmining shakllanishi (Xalil ibn Ahmad, Axfash). Markaziy Osiyoda adabiyotshunoslikning taraqqiyoti (Forobiy, Beruniy va Ibn Sino risolalari). Fors aruzining shakllanishi (Qays Roziy, Aruzi Sayfiy v.b.). Turkiy aruz manbalari (Shayx Ahmad Taroziy). Balog'at ilmlarining shakllanishi (Ibn Mu'tazz, Umar Roduyoniy, Rashiddin Vatvot asarlari). XIII-XV asrlarda fors-tojik adabiyotshunosligi (Shams Qays Roziy, Nosiruddin Tusiy, Vohid Tabriziy) taraqqiyoti. "Funun ul-balog'a" she'r navlari, qoiya va badiiyat, aruz ilmining qomusi sifatida. Markaziy Osiyoda tazkirachilik taraqqiyoti. Alisher Navoiy "Xamsa" dostonlarida adabiy-tanqidiy qarashlar talqini. "Majolis un-nafois" asarida adabiyotshunoslik va adabiy munozaralarga doir ma'lumotlar. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" va "Muxtasar" asarlarida bayon qilingan adabiyot nazariyasiga doir qarashlar. Hasanxoja Nisoriyning "Muzakkiri as'hob" asarida adabiyotshunoslik va adabiy tanqidga doir ma'lumotlar.

Uzoq Sharq va Janubiy Osiyo mamlakatlari adabiyotshunosligi. O'rta asrlar koreys adabiyotshunosligi. Yevropa Uyg'onish davri adabiyotshunosligi manbalari. Renesans nazariyasi va adabiyotshunoslikdagi o'rni. Ingliz Uyg'onishi adabiy manbalari. G'arb adabiyotshunosligi va adabiy oqimlarning shakllanishi. XX asr adabiyotshunosligidagi ilmiy tizim va nazariyalar. Modernizm va uning adabiyotshunoslikdagi ko'rinishlari: akmeizm, futurizm, rasionalizm v.b.

XX asr o'zbek adabiyotshunosligi. Jadid adabiyotida adabiy-tanqidiy qarashlar. Fitratning adabiyotshunoslikka doir faoliyati. Adabiyotshunoslik tarixining fan sifatida o'rganilishi: B.Valixo'jayev, A.Hayitmetov tadqiqotlari misolida.

ABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. 2-китоб. – Т., 1980.
2. Абдурауф Фитрат. Адабиёт қоидалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995.
3. Аристотель. Поэтика. – Тошкент, 1978.
4. Атоуллоҳ Ҳусайний. Бадоеъ усъ-санойиъ. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги «Адабиёт ва санъат» нашриёти, 1974.
5. Ўзбек адабиёти тарихи. 5 жилдлик. 1-5-жилд.-Т., Фан, 1978-1982.
6. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (O'quv qo'llanma). –Т.: Yangi asr, 2006.
7. Қосимов Б. ва бош. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004.
8. Sirojiddinov Sh. va boshq. Navoiyshunoslik. – Т.: Tamaddun, 2019.
9. Alisher Navoiy “Xamsa”si. Tadqiqotlar. – Т.: Fan, 1986.
10. Erkinov S. Navoiy “Farhod va Shirin”i va uning qiyosiy tahlili. – Toshkent: Fan, 1971.
11. Rahmonov N. O'zbek adabiyoti tarixi. – Т.: Fan, 2017
12. Шарқ мумтоз поэтикasi Ҳ.Болтабоев талқинида. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2008.
13. Tohirov S. Aruz vazni qoidalari. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2019.
14. Tohirov S. Xamsachilik an'analari. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2020.
15. Valixo'jayev B. Mumtoz siymolar. II qism. – Т., A.Qodiriy, 2002.
16. Hamidulla Boltaboyev “Adabiy- estetik tafakkur tarixidan”. Mumtoz so'z. – Toshkent, 2013.
17. Бобоев Т. Шеър илми таълими. – Т.: «Ўқитувчи», 1996.
18. Бобур. Мухтасар. – Тошкент, 1976.
19. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи (XV асрнинг биринчи ярми). 1-қисм; Ўзбек адабиёти тарихи (XV асрнинг иккинчи ярми) II қисм. Қўлланмалар. – Самарқанд, 2002.
20. Валихўжаев Б., Тоҳиров Қ. Ўзбек адабиёти тарихи (XVI аср), қўлланма, СамДУ нашриёти, 2002 й.
21. Xoliqulova G. O'zbek mumtoz she'riyati janrlari. O'quv qo'llanma. I qism. – Samarqand: SamDU, 2017. – B. 98
22. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. –Т.: Ўзбекистон, 2014. 320 б.
23. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият луғати. Адабий жанрлар, шеър санъатлари, аруз ва қофия. – Т.: Янги аср авлоди, 2008. – Б. 194.

24. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. – Т., 1983.
25. Комилов Н. Тасаввуф. – Тошкент: Мовароуннаҳр - Ўзбекистон, 2009. – 448.
26. Муҳиддинов М. «Комил инсон адабиёт – адабиёт идеали». – Тошкент: Маънавият, 2005.
27. Муҳиддинов М.Қ. Нурли қалблар гулшани. Монография. – Т.: Фан, 2007.
28. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. – Тошкент: Фан, 1976.
29. Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат (Атоийнинг поэтик маҳорати). – Тошкент 1995 й.
30. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Тошкент, Фан, 1991.
31. Тўйчиев У. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик, 2-жилд, Лирика. –Тошкент, Фан, 1993.
32. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аруз системаси. – Тошкент, Фан, 1985.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA
IXTISOSLIKLARIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARDAN TALABGORLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Eng yuqori ball	100